

## POMIDORNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Ahmedov Baxtiyor Mahammadjonovich**

*Qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori. Oltiko'l tuman Green Valley Seeds urug'chilik xususiy korxonasi rahbari*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada pomidor o'simligi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Pomidor, ituzumdoshlar, tropik, sabzavot, meva, pamildori, Janubiy amerika, bir yillik, o'simlik.*

Pomidor – ituzumdoshlar oilasiga mansub bir yillik, tropik iqlimlarda ko'p yillik o't o'simlikdir. Sabzavot sifatida keng ekiladi. Ilmiy terminologiyada tomat nomi ishlatilsa-da, O'zbekistonda o'simligi ham, mevasi ham, “pamildori” (xalq orasida) deb yuritiladi.

Pomidorning tug'ilgan joyi Janubiy Amerika bo'lib, ular hali ham o'sadigan yovvoyi navlar hisoblanadi. Kolumb Amerikani kashf etishidan ancha oldin, pomidorning birinchi yetishtirilgan navlari allaqachon Meksika bo'ylab tarqalgan. Bu shubhasiz, yevropaliklar tatab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan birinchi pomidorlar edi. 1554- yilda Italiyada pomidorning tavsiflari paydo bo'ldi, u italyan tilidan “oltin olma” deb tarjima qilingan pomid “oro” deb nomlangan. Bu nomdan xulosa qilishimiz mumkinki, yevropaliklar birinchi ko'rgan pomidor sariq rangda bo'lgan. 16- asrda pomidor Angliya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, va boshqa ko'plab Markaziy Yevropa mamlakatlarida yetishtirilgan. Pomidorning madaniy turlarining kelib chiqishi haqida ishonchli arxeologik ma'lumotlar yo'q. Ushbu botanika turining yovvoyi va yarim yovvoyi turlari va navlari hali ham Ekvador, Galapagos orollari, Peru va Chilida o'sadi. Bir qator tadqiqotchilar Peruni pomidorning vatani deb hisoblashadi, nemis tabiatshunosi Aleksandr Gumboldt Meksika deb atagan va sovet o'simlikshunosi Nikolay Ivanovich vavilov Janubiy Amerika mintaqasini pomidorning ibtidoiy shaklining kelib chiqish gen markazi sifatida ko'rsatgan.

Pomidor issiqsevar o'simlik. Uning urug'i 10-12C haroratda una boshlaydi. O'simlikning normal o'sib rivojlanishi uchun xarorat 25C atrofida bo'lishi kerak. Harorat 15C dan pasayganda ko'pchilik navlarning gullashi to'xtab, harorat 10C pasayib ketganda esa vegetativ organlari ham o'sishdan to'xtaydi. Harorat – 0,5C pasaysa pomidor gullarga halokatli ta'sir ko'rsatadi – mevalarda sovuq urgan dog'lar paydo bo'ladi. Harorat – 1-2C tushsa, o'simliklar butunlay nobud bo'ladi. Pomidorni hozirgi vaqtda yaratilgan duragay navlari bundan mustasnodir, chunki ular –3 – 4C sovuqqa bardosh bera oladi. O'ta yuqori harorat ham pomidor o'simligining o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Harorat 32C dan oshganda ularning o'sishi sekinlashadi, harorat 35C ga yetganda esa o'simlik o'sishdan butunlay to'xtaydi. Pomidor – yorug'sevar o'simlik. Yorug'likning yetarli bo'lmasligi o'simlikning o'sish va rivojlanishini sekinlashtiradi. Pomidorni ko'pchilik navlari yorug'lik 10-12 soat davom etadigan kunlarda yaxshi rivojlanadi, lekin ba'zi navlar kun uzunligi qisqarganda, ayrimlari esa aksincha bir muncha uzayga yaxshi o'sadi. Pomidor barglarning suv bug'latish satxi katta bo'lib, baquvvat yer ustki massasi hosil qiladi, bunday

massaning vujudga kelishi uchun esa ko'p miqdorda suv talab qilinadi. Shuning uchun ham pomidor o'simligi, ayniqsa yoppasiga meva tugish davrida tuproq namga talabchan bo'ladi. (tuproqni dala nam sig'imi 70 % bo'lishi kerak). Bu davrda suv yetishmasa, o'simlikning tuguncha va mevalari to'kila boshlaydi. Shu bilan birga pomidor o'simligi havo namligi mo'tadil 45-60 % bo'lishini xohlaydi. Havo namligi bundan oshib ketsa, tugunchalar yaxshi urug'lanmay qoladi va to'kilib ketadi hamda zamburug' kasalliklari paydo bo'ladi. Pomidor o'simligining namga bo'lgan talabi parvarishlash usullariga bog'liq. Ko'chatdan yetishtirilgan va ildiz sistemasi yuzaroq taralgan pomidor o'simligi, bevosita urug'i ekib o'stirilgan va ildiz sistemasi ancha chuqur joylashgan pomidorga nisbatan namni ko'p talab qiladi. Pomidor o'simligining o'suv davri uzoq davom etadi. O'suv davrining davomiyligi dalaga ko'chat o'tqazilgandan keyin muayyan sharoitda sovuqsiz davrining qancha davom etishiga qarab belgilanadi. Harorat va namlik sharoitlari qulay bo'lganda urug'i ekilgandan 4-5 kun o'tgach, maysalari ko'rina boshlaydi, 3-5 kun o'tgandan keyin esa birinchi chinbarg chiqaradi. Shundan keyingi paydo bo'ladigan barglar tobora murakkablasha boradi va yettinchi yoki sakkizinchi bargdan boshlab yetuk o'simlik barglarining hamma belgilari shakllanadi. O'simlikda 5-7, kechpishar navlari esa 10-11 ta barg chiqargandan keyin dastlabki tupgul – shingil paydo bo'ladi. bundan keyingi gul shingillari har uchinchi, ayrim hollarda har ikkinchi bargdan keyin paydo buladi. Pomidor o'simligi naviga va parvarishlash sharoitiga qarab maysa ko'ringandan keyin 50-70 kun o'tgach gulga kiradi. Gullashdan keyin 40-55 kun mevalari yetila boshlaydi. Pomidor ko'chatidan o'stirilganda, parnikka sepilgan urug' unib maysalari ko'ringandan to hosili pishguncha o'simlikning naviga va o'stirish texnologiyasiga qarab 100-120 kun o'tadi. Urug'i bevosita dalaga ekilganda o'simlikning o'suv davri 70-90 kun davom etadi. Odatda, kuzgi dastlabki sovuq tushishi bilanoq pomidorning o'suv davri to'xtaydi.

Pomidorning sog'liq uchun foydalari haqida gapirganda, pomidor juda to'yimli ekanligini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Qizil, pishgan pomidorning bir porsiyasi A, C, K vitaminlari va kaliyning ajoyib manbayidir. Ular tabiiy ravishda natriy va kaloriyalarda past bo'lib, niatsin, vitamin B6, mis va tiaminni o'z ichiga oladi. Pomidorning qo'shimcha afzalligi ularning yuqori tolali tarkibidir.

Qadim zamonlarda odamlar pomidorni zaharli mahsulot deb o'ylab undan istemol qilishmagan. Mana ko'p yillar o'tib, bu fikrning noto'riligi isbotlandi. Pomidor shu qadar foydali mahsulotki, jumladan u quyidagilarga yordam beradi. -Pomidorlar serotonin manbai bo'lib xuddi shokolad dek u kayfiyatni ko'taradi; -Moddalar almashinuvi normallasadi; -Pomidorlar ozish va yoshlikni saqlab qolishga yordam beradi; -Ular yurak-qon tomirlarini faoliyatini yaxshilaydi; -Kasallikka qarshi kurashga yordam beradi; -Ko'rish qobilyatini yaxshilaydi.

Pomidor shunchaki mazali emas. Ular ichki organlar uchun ham juda muhimdir. Pomidor buyraklarni sog'lom saqlashga yordam beradi va toshlardan saqlaydi. O't pufagidagi toshlardan himoya qilishga yordam beradi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pomidor iste'mol qiladigan odamlarda buyrak va o't pufagida tosh paydo bo'lish ehtimoli kamroq. Ko'p miqdorda pomidor iste'mol qilish terining holatini yaxshilashga yordam beradi. Pomidor beta-karotinga boy bo'lib, u sabzi va kartoshka kabi apelsin sabzavotlarida

ham mavjud. Betakarotin terini quyosh ta'siridan himoya qiladi. Pomidorning ya'na bir mazali komponenti – likopen. Likopen terini ultrabinafsha nurlanishidan himoya qiladi. Pomidorda K vitamin va kaltsiy ko'p. ushbu ikki komponent suyaklarni mustahkamlash uchun idealdir. Ha, pomidorda kaltsiy bor va sut mahsulotlari uning yagona manbai emas. Pomidordagi likopen ham suyak kuchiga katta ta'sir qiladi. Pomidorlar qon shakar darajasini tartibga solishga yordam beradi va yaxshi xrom manbai hisoblanadi. Agar siz gazak qilishni xohlasangiz, bir nechta pomidorni iste'mol qiling va darhol o'zingizni ancha yaxshi his qilasiz... Maksimal natijaga erishish uchun ularni yangi iste'mol qilish kerak. Pomidorning afzalliklari sog'lom sochlarga ham taalluqlidir. Pomidorlar A vitaminining yaxshi manbai bo'lib, sochni porloq va kuchli qiladi. Ularni yeyish yoki sochlar uchun niqob qilish mumkin. Ikkita pomidorni blenderdan chiqarib bir choy qoshiq limon sharbati va zaytun moyini qo'shib aralashtiriladi va nam sochga surtiladi. Sochni shunday bir soatga qoldiriladi, keyin shampun bilan yuviladi. Pomidor saraton kasalligining oldini olishda foydali ekanligi isbotlangan. Likopen eng muhim antikanserogen stimulyatoridir. Bachadon bo'ni, og'iz bo'shlig'i prostata va tuxumdonlar saratoni kabi bir qancha saraton turlari havfini kamaytiradi. Pomidorlar hujayralarga zarar yetkazadigan erkin radikallarga qarshi kurashadigan antioksidantlarga boy.

O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko'p ekiladi va jami sabzavot yetishtiriladigan maydonlarning 40 % dan ortig'ini egallaydi. Sabzavot ekinlari, jumladan pomidor yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda respublikamizda 200 ming gektardan ortiq maydonga sabzavot ekinlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shundan 45,8 foiziga pomidor ekini ekilib, o'rtacha hosildorlik 24 tonnani tashkil etmoqda shuningdek, issiqxona sharoitida yetishtirilayotgan pomidorlar eksport qilinayotgan agromahsulotlar orasida yetakchi. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda pomidorning 258 (120 ta ochiq usulda + 138 ta yopiq usulda) ta navi ekiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Sheraliyev. "Umumiy va qishloq xojaligi fitopotalogiyasi".
2. ZuevV.I., OstanqulovT.E., Qodirxo'jaevO., NarzievaS. Sabzavotchilik. darslik. Toshkent-2010. 28 b.t
3. T. "To'lqin" (2008) Bolotskiy, A.S."Tomat"-Xarkov 2002 Abdulkarimov, D.T. Kamiy tonat Toshkent 1987
4. M.T.Arslonova,A.U.Sagdullayev,SH.K.Aliyev,O.T.Xujayev, X.Z.Abdullayeva. O'simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish. Toshkent. 2016
- 5.ZuevV.I., MavlyanovaR.F., DusmuratovaS.I., Bo'rievX.Ch. Овощи это пища и лекарство. Uchebnoe posobie. Tashkent- 2016. 216 c.